To'sh o'mrov-so'rg'ichsimon muskul bo'yindagi eng kuchli muskul. Bu muskul to'sh suyagining dastasidan, o'mrov suyagining to'sh tomondagi uchidan 2 boshi bilan boshlanib, chakka suya-gining so'rg'ichsimon o'simtasiga birtakadi. Bir tomondama qisqar-ganda kallani qiyshaytirib, bir tarafga bukadi, ikki tomondama qisqarganda kallani orqaga tortadi.

10-rasm. Bo'yin muskullari.



joylashgan. Bu muskul ko'krak fassiyasidan, deltasiimon muskuldan boshlanib, xususiy chaynash muskulining fassiyasiga va pastki jag'ga birtakadi.

Mimika muskullari odamda yaxshi rivojlangan bo'lib, suyakdan boshlanib teriga birikadi. Ular qisqarganda terini bir tomonga tortib, kishini turli ruhiy holatlarda aks ettiradi. Mimika muskul-lari, asosan, yuzda joylashadi. Ular og'iz, ko'z atrofini o'rab tura-di. Bu muskullar so'zlash, chaynash, nafas olishda ham ishtirok etadi. Mimika muskullariga peshona, qoshni chimiruvchi, takab-burlik, ko'zning doira, burun, yonoq, yuqorigi labning kvadrat, og'izningdoira, pastki labning kvadrat, pastki labning uchburchak, kulgi muskullari va boshqalar kiradi.

YUQORI KAMAR MUSKULLARI.

Bu muskullar yelka kamari, yelka bo'g'imi, tirsak bo'g'imi, qo'l panjasi harakatlarida faol ishtirok etadi. Yuqorigi kamar muskullari elka kamari, bilak, panja muskullariga bo'linadi.

Yelka kamari muskullari suyaklar yuzasida joylashgan bo'lib, asosan, yelka bo'g'imidagi harakatlarda ishtirok etadi.

Qo'l muskullari uch guruhga: yelka, bilak va panja muskullari-ga bo'lib o'rganiladi. Yelka muskullari joylashishiga ko'ra old va orqa muskullariga bo'linadi. Oldinda yelkaning ikki boshli, yelka va tumshuqsimon yelka muskullari , orqa tomonida uch boshli va tirsak muskullari joylashgan.

Bilak muskullari 3 guruhga: oldingi, yon va orqa tomondagi muskullarga ajratiladi. Oldingi muskullar yelka suyagining ichki yon o'simtasidan, yelka oldi fassiyasidan boshlanib, panja suyaklarining old tomoniga birikadi. Ular qisqarganda panja va barmoqlarni bukadi. Panjani ichkari tomonga buradi. Yon tomonda faqat bitta yelka-bilak muskuli bor. U baquvvat muskul bo'lib, yelka suyagining tashqi yu-zasidan boshlanadi va bilakning bigizsimon o'simtasiga birikadi. Bu muskul qisqarganda tirsak bo'g'imini bukadi. Orqa tomondagi musk-ullar yelka suyagining tashqi yon o'simtasidan, bilak-tirsak suyak-larining orqa yuzasidan boshlanib, panja suyaklarining orqa yuzasiga tutashadi. Bu muskullar qisqarganda panja va barmoqlarni yozadi.

PASTKI KAMAR MUSKULLARI

Pastki kamar muskullari, asosan, 2 guruhga: chanoq kamari va er-kin oyoq muskullariga bo'lib o'rganiladi. Bu muskullar kuchli paylar


Ko'rish zonasi katta yarim sharlar po'stlog'ining ensa qismida bo'lib, ko'z retseptorlarida vujudga keladigan qo'zg'alish ana shu zonaga o'tkaziladi. Bu zonaning faoliyati ko'rish tuyg'ulari hosil bo'lishi bilan bog'liqdir.

Sezish-harakatlantirish zonasi markaziy egatchaning oldi va orgasidagi pushatalarida joylashgan. Bu yerga, markazga inti-luvchi nervlar, hamma orqa miya bilan bosh miyaning yuqori ko'tariluvchi yo'llari orgali teri, muskullar bo'g'im xaltalari retsep-torlarida hosil bo'ladigan qo'zg'alishlar o'tkaziladi. Po'stloqning bu zonasi barcha harakatlarni bir-biriga uyg'unlashtiruvchi oliy

Hayvonlarda qilingan eksperimentlar va kasal odamlar ustida olib borilgan kuzatishlar miya po'stlog'ida bir necha zona bo'li-olish va hid bilish zonalaridir. Bu zonalarining eng muhimlari sezish, harakatlantirish, ko'rish, faoliyatlarini tartibga solish ana shu zonalariga bog'liq bo'ladi.

Hid bilish zonasi peshonaning ichki yuzasida bo'ladi. Bu zona burun bo'shlig'i retseptorlarni bilan bog'langan. Chap yarim sharda (chapapaylarning o'ng yarim sharida) faqat odamga xos po'stloqning har qaysi zonasi ichida neyron tolalari notekis taqsimlangan: zonaning markaziy qismida neyron tolalari ko'p bo'lib, periferik qismida ozdir. Qo'shni zonalar chegarasi bir-biriga o'tib ketgan. Buning natijasida, biror zona shikastlan-ganda yo'qolgan funksiya, ba'zi hollarda, boshqa zonalar tar-qalgan neyronlar hisobiga tiklanadi. Har xil retseptorlarida hosil bo'lgan qo'zg'alish po'stloqning tegishli zonasi-ga borib yetadi. Qo'zg'alish bu yerdan har qanday organga borishi va uning funk-tsiyalariga ta'sir etishi mumkin, yarim sharlar po'stlog'i faoli-yati bilan bog'liq bo'lgan barcha funksiyalari shartli refleksiylardir. Shartli refleksiylarning hosil bo'lishi yarim sharlar po'stlog'iga bog'liq bo'ladi, bu yarim sharlar organlar ishini doimiy o'zgarib turadigan tashqi muhit sharoitiga moslashtiradi.

Eshitish zonasi chakka pallalarining tashqi po'stlog'ida bo'ladi. Bu yerga qo'zg'alish eshitish retseptorlaridan keladi. Bu qo'zg'alish eshitish tuyg'ularini hosil qiladi. Hid bilish zonasi peshonaning ichki yuzasida bo'ladi. Bu zona burun bo'shlig'i retseptorlarni bilan bog'langan.



21-rasm. Bosh miyaning tuzilishi.

Odamning bosh miya yarim sharlari eng yaxshi rivojlangan. Miyaning og'ir bo'lishiga sabab ham ana shu, odamning bosh miyasi o'rta hisob bilan 1350—1400 g keladi. Yarim sharlar po'stloqlari ko'pdan-ko'p egatcha va burmalar hosil qiladi. Bular po'stloq sathini 2000—2500 sm² ga yetkazadi. Po'stloqning 70% burmalarga to'g'ri keladi. Yarim sharlar po'stlog'ining qalinligi 2 dan 4 mm gacha bo'lib, po'stloq bir necha qavatdan iborat, bu qavatlar taxminan 14 milliard hujayradan tuzilgan, bu hu-jayralar shakli, katta-kichikligi va bajaradigan vazifasi jihatidan harxil bo'ladi. Hujayralarning ba'zilar, sezuvchi hujayralar har xil organlardan keladigan qo'zg'alishni qabul qiladi, ba'zilar, harakatlantiruvchi hujayralar qo'zg'alishni muskullarga o'tkazadi, boshqa hujayralar o'z o'simtalari vositasi bilan po'stloqning har xil uchastkalarini bir-biriga bog'laydi. Miya po'stloqlari ostida oq modda bo'ladi, bu moddaning tolalari o'tkazuvchi yo'llar ho-sil qiladi. Bu yo'llar po'stloqning miya ustuni markazlari bi-lan va gavdaning barcha organlari bilan bog'laydi. O'tkazuvchi yo'llarning ba'zi tolalari bir-biri bilan kesishib o'tadi. Buning natijasida yarim sharlarning har biri gavdaning qarama-qarshi tomoni bilan bog'lanadi.

Ko'rish zonasi ensa pallalari po'stlog'ida bo'lib, ko'z retsep-torlarida vujudga keladigan qo'zg'alish ana shu zonaga o'tkaziladi Bu zonaning faoliyati ko'rish tuyg'ulari hosil bo'lishi bilan bog'liqdir.

va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U ovqat tarkibida yetarli miqdorda *gipovitaminoz* B2 yuzaga keladi. Bu kasallikda ko'zning shox pardasi xiralashadi va ko'rish o'kirilg'i, ranglarni ajratish qobiliyati pasayadi. Bu vitamin jigar, buyrak, tuxum sarig'i, sut va sut mahsulotlarida, no'xat, loviya tarkibida bo'ladi.

PP *vitamin* hujayra va to'qimalarda moddalar almashinuvi jarayoni normal o'tishida muhim rol o'ynaydi. Bu vitamin yetishmasligi natijasida kelgan dermatit, diareya, demensiya kasalliklari paydo bo'ladi. *Dermatit* terining kasallanishi. *Diareya* — oshqozon-ichkada ovqat hazm bo'lishining buzilishi va ich ketishi bilan xarakterlanadi. *Demensiya* — markaziy nerv sistemasi funksiyasi, ya'ni odamning psixik faoliyati buzilishi bilan xarakterlanadi. Bu vitamin jigar, buyrakda, mol go'shtida, no'xat va loviya tarkibida bo'ladi. S *vitamin* moddalar almashinuvida, ayniqsa oqsillar va uglevodlar almashinuvida muhim rol uynaydi. Uning yetishmasligi natijasi *singa* kasalligi yuzaga keladi. Bu kasallik odamda umumiy holisizlik, tez charchash, milliklar shishib, qizarib bo'shashib qolishi, tishlar qimirlab tushib ketishi bilan xarakterlanadi. Bu vitamin no'imevalarda, ko'katlarda, sabzavotlarda, karam, pomidor, piyoz tarkibida ko'p bo'ladi. D *vitamin* organizmda kalsiy va fosfor almashinuvi normal o'tishida ishtirok etadi. Bu vitamin yetishmasligi natijasida yosh bolalarda raxit kasalligi yuzaga keladi. Bolalarda oldiniga ko'p terlash, injilqik, uyqu buzilishi kabi belgilar kuzatiladi, so'ngra bolaning suyaklari yumshashi natijasida ular egriilab, shakli buziladi, boshning ensa qismi pachog'lanadi. D vitamin tuxum sarig'ida, sut va sut mahsulotlarida ko'p bo'ladi. Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida odam terisida hosil bo'ladi.

oladi. Bunday baqani pastki jagʻidan osib qoʻyib, tanasining oʻng tomoniga kislota bilan hoʻllangan qogʻoz yopishtiramiz. Bunda orqa oʻng oyogʻining muskullari qisqaradi, baqaning oyogʻi koʻtariladi va qogʻozni oʻsha oyogʻi panjasi bilan olib tashlaydi. Baqaning shu oyogʻini qimirlamaydigan qilib bogʻlab qoʻyamiz. Baqa qogʻozni chap oyogʻi bilan olib tashlaydi, chunki qoʻzgʻalish miyaning oʻng tomonidan chap tomoniga oʻtadi. Biroq, hayvon oʻz toʻzilishi jihatidan qanchalik yuksak boʻlsa, uning harakatlarida bosh miya shunchalik katta ahamiyatga ega boʻladi. Odamda ayrim hollarda jarohatlanish natijasida orqa miya bilan bosh miya orasidagi aloqa uzilib qolgan. Bunday odamda oddiy reflekslar roʻy bergan, ammo murakkab harakatlar mutlaqo boʻlmagan. Orqa miya *qon tomirlarining kengayish-torayishiga, ter bezlarining faoliyatiga* va organizmning boshqa koʻplab funksiyalariga taʼsir etadi. Orqa miyaning faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan barcha reaksiyalar *shartsiz reflekslardir*. Shartsiz reflekslar irsiy boʻlib, ular bola tugʻilgandan keyinok, shu reaksiyalarni vujudga keltiradigan sabab taʼsir etsa, darhol namoyon boʻladi.

BOSH MIYA

Bosh miya kalla suyagi bo'shlig'ida joylashgan. U quyidagi bo'limlar: o'zunchoq miya, ko'prikcha, miyacha, o'rta miya, oraliq miya va katta yarim sharlaridantashkil topgan. Bosh miya oq va kulrang moddadantuzilgan. Oq modda o'tkazuvchi yo'llarni hosil qiladi. Ular bosh miyani orqa miya bilan, bosh miyaning boshqa bo'limlarini o'zaro bog'laydi. O'tkazuvchi yo'llarni vazifasi tufayli tufayli, butun markaziy nerv sistemasi bir butun xolda ishlaydi. Kulrang modda miya yarim sharlarini va miyachani o'rab, po'stloq hosil qiladi. SHuningdek ayrim to'plam-yadro shaklida oq modda ichida joylashadi. **Bosh** miya ikki qismdan bosh miya ustuni va bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'idan iborat. Bosh miya ustun qismi o'zunchoq miya, ko'prikcha, o'rta miya va oraliq miya va miyachadan iborat. *Uzunchoq miya* orqa miyaning yuqoriga tomon ketgan davomi bo'lib, uning shaklini saqlab qoladi. O'zunchoq miyaning oldingi va orqa qismi bo'ylab, xuddi orqa miyadagi kabi, yaxshi ko'rinib turadigan bo'vlama

tugallanishi bilan bog'liq.

bolalarda esa 10-11 yoshdan 19-20 yoshgacha davom etadi. Birinchi pubertat oldi davri qiz bolalarda 12 yoshgacha, o'g'il bolalarda 13 yoshgacha davom etadi va jinsiy bezlarning ishlay boshlashi hamda ko'pgina jarayonlarning borishiga, jumladan, to'qimalarning ham o'sishiga imkon berib turadigan gormonlar-ning qongga tushishi bilan bog'liq bo'lgan dastlabki voyaga yetish belgilaridan oldin yuz beradi. Ikkinchi, asl pubertat fazasi 16-17 yoshlargaacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi va voyaga yetishning dastlabki belgilarini paydo bo'lishida, ya'ni o'g'il bolalarda polli-utsiya va qiz bolalarda hayoz paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Uchinchi pubertat fazasi ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanishining

millashadi, shartli tormozlanish rivojlanadi. Qiz va o'g'il bolalarda *pubertat* nomini olgan davr, ya'ni balo-
g'atga yetish davri bo'ladi, bu davr ichida organizmda jinsiy yo'l bi-
lan ko'payish qobiliyati paydo bo'ladi. U uch fazada ro'y beradi va
bir necha yilga: qiz bolalarda 8-9 yoshdan 16-17 yoshgacha, o'g'il

myasining vazni esa taxminan 1350 g bo'ladi. Skelet jadal suyakka aylana boshlaydi va tayanch-harakatlanish apparati mustahkam-lanib boradi. Bolalar turli-tuman muvoqlashgan harakatlar qi-lishga layoqatli bo'ladi. Markaziy asab tizimining faoliyati takom-

ortadi. Nutq-talaffuz apparatni rivojlantiradi. Endokrin tizimlarning faoliyati kuchayadi. Uch yoshda bo'ling yillik o'sishi 10 sm ga yetadi, uch yoshdan yetti yoshgacha esa seklinlashib, 6,5 sm ni tashkil yetadi, so'ngira yana ham seklinlashadi. Ayni vaqtda uning rivojlanishi va takomillashuvi kuzatiladi, bu bolaning yo'lga kirishi, yugurishi harakatlari dan ko'rinib turadi. Tishlari chiqqa boshlaydi. Miya to'qimasi o'sadi va asab tizimining faoliyati takomillashadi. Yetti yoshga borib bola yuragi 4—5 baravar kattalashadi, bosh

Boldir muskullari joylashishiga ko'ra oldingi, orqa va chekka muskullarga bo'linadi. Boldirning oldingi tomonida yozuvchi boldirning oldingi katta muskuli, barmoqlarning yozuvchi uzun muskul, orqa tomonida bukuvchi boldirning uch boshli muskuli joylashgan.

Nazorat savollari

1. Skelet muskullari va ularning shakllarini tushuntiring.
2. Muskullarning qanday turlarini bilasiz?
3. Muskullarning yordamchi apparatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Gavdaninig orqa tomonida qanday muskullar joylashgan?
5. Ko'krak muskullarini sanab o'ting.
6. Qorin muskullarini tavsiflab bering.
7. Bo'yin muskullariga nimalar kiradi?
8. Til osti suyagiga birikuvchi muskullarni tushuntiring.
9. Chaynov muskullariga ta'rif bering.
10. Mimika muskullari qanday vazifani bajaradi?

Uchinch o'rti bosh, tug'ilish vaqtiga kelib, o'g'il bolalarini o'rtasida 3400 g ni, qiz bolalarini 3250 g ni tashkil etadi. Uchinch o'rti boshda mushaklar shakllanadi, harakatlar paydo bo'lib, ular to'rtinchi oy oxirida ancha sezilarli bo'ladi. Hayotining 28-haftasida homila ona organizmidan tashqarida yashashga tayyor bo'ladi, biroq juda kichik: bo'yi 355 mm va massasi 1300 g bo'ladi.

Ona gormidagi hayot o'rtacha 280 kun (40 hafta) davom etadi. Tug'ilish vaqtiga kelib, teri osti to'qimalari, boshdagi soch gopla-

Yoshga oid davr — bu chegaralangan vaqt oralig'i bo'lib, uning mobaynida organizmning fiziologik, faoliyatusiyatlarini, uning holatini o'zgarishini ko'rsatadi. Davrlar bir-biridan farq qiladi. Bir davrdan ikkinchisiga o'tish asta-sekin emas, balki sakrash tarzida ro'y beradi. Shunday bo'lsada, bolaning o'sishi va rivojlanishi muayyan qonuniyatlar asosida bo'ladi, bularga *geteroxroniya* va *akseleratsiya* kiradi.

Yangi organizmning hayoti tuxum hujayrasining urug'lanishidan boshlanadi. Keyingi ko'p sonli bo'linish natijasida hujayralar soni tez ko'payib boradi. To'rt kecha-kunduzda ular 58 taga yetadi. Hujayralar yig'indisidan muayyan tuzilmalar shakllanib, ular asta-sekin asab, yurak-tomir, hazm qilish, tayanch-harakatlanish va turli to'qimalar hamda a'zolaridan tashkil topgan boshqa tizimlar rivojlanadi. 12-13 kunlik pushning uzunligi 1,5-2 mm, uchinch o'rti boshda 4 mm, to'rtinchi hafta oxirida 8 mm, uch oyda 9 sm bo'ladi. Hayotining ikkinchi oyidan boshlab, rivojlanayotgan organizm *embriyon* deyiladi. Unda odamning tashqi belgilari — yuz, quloqlar, ko'z, burun, oyog-qo'l alohida alohida, markaziy asab tizimi, sezuvchan goplarlar, me'da-ichaklarining ichki pardalari, nafas a'zolari, yurak-tomir tizimlarining to'qimalari paydo bo'ladi.

III bob. GETEROXRONIYA VA AKSELERATSIVA

mi shakllanadi, yurak-tomir, asab, ayiruv tizimlari, o'pka, buyrak oldi va birlamchi buyrak o'rnida uzil-kesil shakllangan buyrak, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari, me'da osti bezi, me'da-ichak yo'llarining barcha bo'limlari ishlay boshlaydi. Qon hosil qilish faoliyatini (homila rivojlanishining dastlabki besh oyida bo'lganidek) jigar emas, balki suyak ko'migi bajaradi. Hozircha asosan tog'ay to'qimasidan iborat bo'lgan skelet mavjud bo'ladi. Kalla suyagi bo'limlari harakatsiz, uzil-kesil emas, balki biriktiruvchi to'qima bilan birikkan bo'ladi, shu tufayli bosh miya to'qimalari massasining ko'payishiga imkon beradi va u tug'ilishdan keyin hayotining birinchi yilida juda jadal o'sadi.


Sut emizuvchilarning har xil turlari yangi tug'ilgan bolalarining faoliyati yetuklik darajasi bilan farqlanadi. Yetuk tug'iladigan hayvonlar deyarli tug'ilgan zahotiek tik turish va yurish, ona sutini mustaqil emish qobiliyatiga egadirlar. Yetuk tug'ilmaydigan hayvon bolalarining harakat faoliyatlari nisbatan sust rivojlangan bo'lib, hayotining birinchi kuni va haftalarida ular kuchsiz va himoyaga muhtojdirlar. Bunday yangi tug'ilgan bolalarda yetuk tug'ilagan organizmning belgilari juda keskin namoyon bo'ladi va ularning rivojlanishida voyaga yetish muddati juda uzundur.

Organizmning maromli holatida o'sish va rivojlanish juda uzviy bog'langan va o'zaro bir-biriga ta'sir qilsada, biroq ular bir vaqtda sodir bo'lmaydi hamda turli tezlikda boradi, chunki biror a'zo to'qimasining massasi ortishi uning ayni vaqtda faoliyati jihatdan takomillashuvini bildirmaydi. Bu hodisa *geteroxroniya*, ya'ni *rivojlanishning notekisligi* nomini olgan. U chaqaloqning yashab ketishini ta'minlaydi, chunki hayotiy muhim tizimlar boshqa a'zolaridan tezroq rivojlanadi. Biroq ularning rivojlanish darajasini eng oddiy reflektor reaksiyalar ta'minlaydi. Bola faqat ko'krak so'rishi, aksirishi, yo'talishi, ko'zini pirillatishi, rangni farqlay olishi, eshitishi, kam darajadagi mushak harakatlari qilishi ana shunday reflektor faoliyatdir. Faoliyati tizimlarning rivojlanishida geteroxroniya quyidagilarda namoyon bo'ladi: hayotning birinchi yilida tayanch-harakatlanish apparati jadal sur'atda o'sadi va rivojlanadi, tanasining uzunligi bir yarim marta (24 sm ga yetadi), massasi esa uch marta ortadi va bolaning vazni hayotining birinchi yili oxirida taxminan 12 kg bo'ladi. Yurak to'qimasining gistologik tabaqalashuvi

Orga miya umurtqa kanaliga joylashgan bo'ladi, orga miyaning yuqorigi uchi bosh miyaga tutashadi. Uning pastki uchi esa 1-2-bel umurtqasi ro'parasida tamomlanadi. Bo'yin umurtqalari va pastki ko'krak umurtqalari atrofiga orga miya yo'nashadi: shu yerda undan qo'l-oyoqlarga juda yirik nervlar tarmoqlanib chiqadi. Orga miyaning old va orga qismidan *bo'yama egarlar* ketadi, markazdan esa *orga miya kanali* o'tadi, bu kanal limfaga o'xshash suyuglik bilan to'lgan bo'ladi. Orga miya kanali atrofiga *kulrang modda* joylashgan. Miya ko'ndalangiga kesilganda bu modda kapalak yoki N harfi shaklida bo'ladi. Kulrang modda uzun neyron o'simatlardan iborat oq modda bilan o'ralgan. Neyron o'simatlardagi qo'zg'alish o'tkazuvchi yo'llarni hosil qiladi, bu yo'llar orga miya nerv markazlarini bir-biri bilan va bosh miya nerv markazlari bilan tutashtiradi. Orga miyadan 31 juft *nerv* tarmoqlanib chiqadi. **Orga miyaning funksiyalari.** Har xil tajriba va kuzatishlar orga miyada *harakatlanuvchi refleks markazlari* borligini ko'rsatadi. Bosh miyasi olib tashlangan baqa ancha murakkab harakatlar qila

ORQA MIYA

20-rasm. Orga miyaning tuzilishi.



VIII bob. NERV SISTEMASI

Nerv sistemasi organizmni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. U hujayralar, to'qimalar, organlar va ular sistemalarining muvofiq ishlashini ta'minlaydi. Bunda organizm bir butun holda ishlaydi. Nerv sistemasi orqali organizm tashqi muhit bilan bog'lanadi. Nerv sistemasining faoliyati tuyg'u, o'qish, xotira, nutq va tafakkurga-ruhiy asoslangan bo'lib, ular yordamida odam faqat atrof muhitni bilib olmay, balki uni faol holda o'zgartirishi mumkin. Nerv sistemasi markaziy va periferik qismga bo'lib o'rganiladi. Markaziy qism bosh miya va umurtqa pog'onasi kanalida joylashgan orga miyadan iborat. Bosh miya ham, orga miya ham *pardalar* bilan qoplangan. Bosh miya bilan orga miya kul rang va oq moddadan tuzilgan. *Kul rang modda* qisqa va juda tarmoqlanib ketgan o'simtalar bilan bir-biriga birikkan neyron tanalaridan iborat. Miyaning *oq moddasi* tolalardan tashkil topgan. Tolalar *o'tkazuvchi yo'llar* hosil qiladi. Bu yo'llar yarim sharlar po'stlog'ining ayrim sohalarini va bosh hamda orga miyada joylashgan yadrolarni bir-biri bilan tutashtiradi. Oq modda tolalari va nervlar markazga intiluvchi hamda markazdan chiquvchi yo'llar hosil qiladi, bu yo'llar esa o'zgarishni organlardan har xil nerv markazlariga va markazlardan organlarga o'tkazadi. Nerv sistemasining periferik qismi orga miya nervlari, bosh miya nervlaridan tashkil topgan. *Orga miya nervlari* orga miyadan chiqib, tana, bo'yin va qo'l-oyoqlarda tarmoqlanadi. Bu nervlar aralash nervlardir: ular markazga intiluvchi va markazdan chiquvchi tolalardan iborat. Markazga intiluvchi tolalar orqali retseptorlardan orga miyaga qo'zg'alish keladi, markazdan chiquvchi tolalar orqali esa qo'zg'alish orga miyadan har xil organlarga o'tkaziladi.

18-rasm. Og'iz bo'shlig'ining tuzilishi.



Ovqat hazm qilish organlari odamda juda rivojlangan bo'ladi. Ovqat moddalari bu organlarda kimyoviy parchalanib, ichak vor-sinkalari orqali qonga so'riladi. Ovqat hazm qilish organlariga: og'iz bo'shlig'i va undagi organlar, tomqoq-halqum, qizilo'ngach, me'da, ichaklar, jigar, me'da osti bezi va ovqat hazm qilish kana-lidagi boshqa ko'p mayda bezlar kiradi. Ovqat hazm qilish kanali: ichki-piteliy, o'rta-muskul va tashqi-seroz qavatdan tuzilgan.

VI bob. OVQAT HAZM QILISH ORGANLARINING TUZILISHI VA FUNKSIYASI

VII bob. VITAMINLAR

Vitaminlar biologik faol moddalar bo'lib, organizmda mod-dalar almashinuvida muhim rol o'ynaydi. N.IIunin 1880 — yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida vitaminlar hayvonlar or-ganizmi uchun muhim modda ekanligini birinchi bo'lib isbotladi. Keyinchalik bu moddalar 1912 — yilda K.Funk tomonidan *vi-taminlar* deb nomlandi. Vitaminlarning 40 dan ortiq turi bo'lib, ularning har biri odam organizmida muhim fiziologik vazifani ba-jaradi. Agar bir necha hafta, oy davomida kundalik ovqat tarkibida biror vitamin muntazam yetishmasa, uning organizmda bajaradi-gan fiziologik vazifasi buziladi. Natijada ma'lum kasallik *yuzaga* keladi. Agar odam organizmida biror vitamin mutlaqo yo'qolsa, *avitaminoz*, uning miqdori kamaysa, *gipovitaminoz*, me'yoridan or-tib ketssa, *gipervitaminoz* deb ataladi. Vitaminlar yog'da va suvda eruvchilarga bo'linadi. Yog'da eruvchilarga A, D, E vitaminlari, suvda eruvchilarga B ,K, S, P,P vitaminlar kiradi.

A vitamin hayvon va odam organizmining o'sishi va rivojlanishi-da, hujayralarning bo'linib ko'payishida, epiteliy to'qimasining funksional holatini normal saqlashda, ko'z o'tkirligining yaxshi bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. A vitamini baliq yog'ida, sariyog'da, tuxum sarig'ida, jigarda, sabzi, qizil qalam-pir, o'rik tarkibida ko'p bo'ladi.

B1 *vitamin (tiamin)* markaziy nerv sistemasida qo'zg'alish —tor-mozlanish jarayonlari normal o'tishida, odamning aqliy faoli-yati yaxshi bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Agar u kundalik ovqat tarkibida yetarli miqdorda bo'lmasa, qo'l-oyoq muskullarida uvi-shib og'rish, holsizlik, tez charchash, odamning aqliy ish faoliyati pasayadi. Bu vitamin uzoq muddat davomida yetishmasa *beri-beri* kasalligi vujudga keladi.

B2 *vitamin (riboflavin)* ko'zning ravshanligi, ranglarni yax-shi ajratishda, teridagi yaralarning tuzalishida, bolalarning o'sishi

larida 69 sm, kekсалarda suyaklarning kichrayishi sababli 7 sm gacha qisqaradi. Umurtqa pog'onasining tug'ma nuqsonlariga ko'pincha 2 yoki 3-umurtqaning o'zaro birlikib ketishi, ortiqcha umurtqalar borligi va shu kabilar kiradi. Odam umurtqa pog'onasining 3 xil: skolioz (yonga), lordoz (oldiga) va kifoz (orqaga) qiyshayishi farq qilinaadi. Umurtqa pog'onasi kasalligida umurtqa pog'onasining fiziologik holatdan chiqib, old, yon va orqa tomonga qiyshayishi kuzatiladi. Skolioz tug'ma bo'lishi mumkin, lekin ko'proq 5-15 yashar bolalarda, ayniqsa o'quvchilar orasida uchraydi. O'quv mashg'ulotlari vaqtida bolalar partada gavadasini noto'g'ri tutib o'tirishi natijasida og'irlik bir xilda tushmaydi. Oqibarda mushak-lar bo'shashtib qoladi. Umurtqa pog'onasi boylamlari va shaklining o'zgarishi turg'un skoliozga sabab bo'ladi. Bolalarning yoshligida raxit bo'lganligi, katta yoshdagilarning esa doim bir qo'lda yuk ko'tarishi ham skoliozga olib kelishi mumkin. Umurtqaning sinishi yoki sil oqibatida yemirilishi natijasida ham skolioz bo'lishi mum-larin. Kishining bir oyog'i kalta bo'lsa, o'sha tomonga engashib qa-dam tashlashi natijasida faoliy skolioz kelib chiqadi. Kifoz yoyisimon bo'lishi mumkin. Bunda umurtqa pog'onasining u yoki bu bo'lagi orqa tomonga qiyshaygan bo'ladi va umurtqa pog'onasining orqa tomonga turtib chiqishi kuzatiladi. Yoyisimon kifoz ko'proq umurtqa pog'onasining ko'krak bo'limida uchraydi. Orqa mushaklar tarangligining keskin kamayishi, yoshlikda raxit bi-lan kasallanish, gavadani uzoq vaqt egib ishlash (stanokda yoki yozuv stolida) yoyisimon kifozga sabab bo'ladi. Umurtqa pog'onasining orqa tomonga turtib chiqishi ko'proq ko'krak umurtqalarida ku-zatiladi va bukrtlik deb ataladi. Bukrtlikka umurtqa pog'onasining turti kasalliklari va shikastlanishi, ko'pincha umurtqalarning sil bi-lan kasallanishi sabab bo'ladi. Lordozda umurtqa pog'onasi ichkariga qiyshayadi. Ko'pincha chanoq suyagining son suyagi bilan tutashgan bo'g'imning tug'ma chiqishi sabab bo'ladi. Bel lordozi qoringa yog'yig'ilishidan ham paydo bo'ladi. Lordozda umurtqalar deformatsiyalanadi va og'riydi. Umurtqa pog'onasining shikastlangan qismining harakatlanishi qi-yinlashadi. Umurtqa pog'onasi qiyshayishining barcha xillarining oldini olish uchun bolalarning gomatini to'g'ri tutishga o'rgatish, tana

boradi. Katta yarimsharlar po'stlog'ining boshqaruvchilik o'rni ortadi, tormozlanish jarayonlari kuchayadi. Asl pubertat faza endokrin tizimining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, gavda qismlari-ni birmuncha tez o'sishi va gavda vazni tez ortib borishi bilan farq qiladi. Gavda nisbatlari katta yoshdagi odam ko'rsatkichlariga yaqinlasha boradi hamda yigitlar va qizlarda bir-biridan farq qila-di. Bu farq gavdaning uzunligida namoyon bo'ladi, chunki o'sish ayollarda erkaklardagiga qaraganda ertaroq tugallanadi va ularning bo'yi erkaklarnikidan past bo'ladi. Bu gavdaning massasi, tana va oyoq-qo'llarning uzunligi, suyaklarning shakli va boshqalarga ham taalluqli. Bu davrda skelet suyaklarining qalinligi va mushak to'qimasining tabaqalanishi hisobiga skeletning suyakka aylanish darajasi ortadi. Harakat analizatori va mushaklar asab apparatining mukammallashuvi qayd qilinadi.

Asl pubertat fazada katta yarimsharlar po'stlog'ining tahlil va muvofiqlashtiruvchi faoliyatlari takomillashadi, qo'zg'alish va tor-mozlanish jarayonlari tenglashadi. Ikkinchi signal tizimi rivojlana-di. Pubertat davrdan keyingi davrda tayanch-harakatlanish tizimi a'zolarining o'sishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning shakllanishi tugallanadi. A'zolar va to'qimalarning rivojlanishi va takomillashu-vi ayniqsa markaziy asab tizimida hayot faoliyati mobaynida hosil bo'lgan yangi shartli reflektor bog'lanishlar hisobiga davom etadi.

Savol tug'iladi — odam organizmining yetuklik davrgacha rivojlanishi uchun shuncha uzoq davrning qanday zarurati bor? Ushbu savolga aniq javob berish qiyin. Olimlarning taxminlariga ko'ra, ketma — ket morfologik va faoliy qayta shakllanish sharoiti-dagina, odam miyasi o'zining murakkab psixik faoliyatlari bilan rivojlana olsa kerak. Inson — ijtimoiy organizm. Miya faoliyat-ining maromli rivojlanishi bola boshqa odamlar bilan muloqotda bo'lgandagina amalga oshadi. Inson jamiyatidan tashqarida bola miyasining psixik faoliyatlari (ong, tafakkur, nutq) rivojlanishda orqada qoladi. Bu to'g'risida hayvonlar orasida yashab ulg'aygan bolalar hayotini bayon qilishda ko'p gapirilgan.

Odam rivojlanishining uzluksiz jarayonida bunday geteroxrom yetilish va faoliy tizimlarning almashishi uzoq muddatli filogenez va ontogenez hamda evolyutsion qayta o'zgarishlarda moslashishning progressiv shakllarining nasliy mustahkamlanishi oqibati hisoblanadi.

P. K. Anoxinning fikri bo'yicha, tug'ilish momentiga kelib, to'lqonli faoliy tizim quyidagi bo'g'inlarga ega bo'lishi kerak: bola organizmiga bo'ladigan o'ziga xos ta'sirlarni qabul qila olish qobili-yatiga ega bo'lgan retseptor apparatlar, asab tizimining o'tkazuvchi qismlari; markaziy neyronlarni aloqalar, periferik ischi appa-ratlar va qaytar afferent axborotni ta'minlovchi apparatlar birligi. Tuzilmaaviy rivojlanishning geteroxrom jarayonlari tizim ichida ham tizimlararo ham bo'lishi mumkin.

Rivojlanishning notekisligini quyidagi yoshga oid o'zgarishlar misolida kuzatish mumkin. Yangi tug'ilgan go'dak nisbatan katta go'l-oyoqlari, tanasi va boshining kattaligi bilan farqlanadi. Uning kallasiining balaandligi tanasi uzunligining 1/4 qismini, ikki yashar bolada esa — 1/5, olti yoshda — 1/6, o'n ikki yoshda — 1/7 va voyaga etgan odamda — 1/8 qismini tashkil etadi. Yosh kattalash-gan sari kallaning o'sishi seklinlashadi, oyoq-qo'llarning o'sishi esa kuchayadi. Jinsiy yetilish davrining boshlanishiga qadar tana proporsiyalaridagi farq bo'lmaydi va ular pubertat davrida paydo bo'ladi. Tananing bo'yi va eni o'rtasidagi proporsiyalarining turlicha bo'lishining uchta bosqichini ajratish mumkin: 4 yoshdan 6 yoshga-cha, 6 dan 15 yoshgacha va 15 yoshdan to voyaga yetgunga qadar. Agar, pubertat oldi davrida umumiy bo'y oyoqlarning o'sishi hiso-biga o'rtas, pubertat davrida esa — tananing o'sishi hisobiga ortadi. Tananing bo'yiga o'sishining notekisligi quyidagicha namoyon bo'ladi. Bola hayotining birtinchi yilida uning bo'yi 25 sm o'sadi va 75 sm ni tashkil qiladi. Ikkinchi yili tananing o'sishi seklinla-shadi va u faqat 10 sm o'sadi. Keyingi yillarda (6—7 yoshgacha) o'sish tezligi yanada seklinlashadi. Kichik maktab yoshining bosh-lanishida bo'y 6—10 sm, 8—10 yoshga kelib esa 3—5 sm ga o'sadi. Jinsiy balog'atga yetish davrida o'sish tezligi yana ortadi — har yilgi o'sish 5—10 sm ni tashkil etadi. Tana o'sishining eng ko'p o'rtish qiz bolalarda 12 yoshga kelib, o'g'il bolalarda esa 15 yoshda kuzatiladi. Bo'yning o'sishi asosan qiz bolalarda 19 yoshga kelib, o'g'il bolalarda esa—20 yoshga kelib tugallanadi. Yangi tug'ilgan davrdan to voyaga yetgunga qadar insonning bo'yi 3, tanasi — 3,5, go'llari — 4, oyoqlari 5 marotaba uzunlashadi. Tananing bo'yiga o'sishi hayotining birtinchi yilida massasining o'rtishi bilan, keyingi davrda seklinlashishi esa faoliy tizimlarning hujayralari, to'qimalari,

1. Ovgat qanday ahamiyatga ega, ovqat tarkibida qanday moddalar bo'lishi kerak, oziq moddalar qanday mahsulotlarda ko'proq bo'ladi?
2. Ovgat hazm qilish kanalining har qaysi bo'limida oziq moddalar o'zgaradi va bunda fermentlar qanday rol o'ynaydi?
3. Ovgat hazm qilish kanalining funksiyalarini tekshirib ko'rish uchun so'lak va me'da shirasi ajralib chiqishining reflektor tarzda bo'lishi qanday isbotlandi?

Nazorat savollari

1. Ovgat qanday ahamiyatga ega, ovqat tarkibida qanday moddalar bo'lishi kerak, oziq moddalar qanday mahsulotlarda ko'proq bo'ladi?

2. Ovgat hazm qilish kanalining har qaysi bo'limida oziq moddalar o'zgaradi va bunda fermentlar qanday rol o'ynaydi?

3. Ovgat hazm qilish kanalining funksiyalarini tekshirib ko'rish uchun so'lak va me'da shirasi ajralib chiqishining reflektor tarzda bo'lishi qanday isbotlandi?

Og'iz bo'shlig'i ovqat hazm qilish kanalining boshlang'ich qis-midir. Og'iz teshigi esa pastki va yuqori lab bilan o'ralgan bo'ladi. Lablar — muskul-teri tuzilmasidan iborat bo'lib, tashqi tomondan teri, ichki tomondan shilliq parda bilan o'ralgan (18rasm).


Til og'iz bo'shlig'i tagida joylashgan. U muskulli organ bo'lib, xususiy til muskuliga va skeletga birikkan muskullarga ega. Tilning uchi, tanasi va ildizi bo'ladi.

Tishlar yuqorigi va pastki jag' suyagidagi o'simtali chuqur-chasida joylashadi. Tishlar 32 ta bo'lib, 16 tasi pastki jag'da, 16 tasi yuqorigi jag'da.

Har bir tishning koronkasi, bo'yni va ildizi bo'lib, ildizi bi-lan jag' suyaklaridagi chuqurchalarga joylashadi. *Koronkasi* aniq ko'rinib turadi. *Ildizi* bilan koronkasi orasida milk bilan o'ralgan toraygan qism tish *bo'yni* joylashadi.

Halqum og'iz bo'shlig'ini qizilo'ngachga, burun bo'shlig'ini hiqildoqqa birlashtirib turadi. Halqum 3 ga: burun-halqum, og'iz-halqum va hiqildoq-halqum qismlarga bo'linadi.

Qizilo'ngach halqumni me'da bilan birlashtiruvchi muskul nay-dan iborat. Uning uzunligi 25 sm bo'lib, 6-bo'yin umurtqasidan boshlanib, XII ko'krak umurtqasigacha davom etadi. Qizilo'ngach devori uch qavatdan tuzilgan bo'lib, tashqi-seroz, o'rta-muskul, ichki-shilliq pardadan iborat (19-rasm).



19-rasm. Qizilo'ngach va oshqozonning tuzilishi. Me'da ovqat hazm qilish organlarining eng keng qismi bo'lib,


a'zolari differensiallashuvi jarayonlarining faollashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Lekin, faol o'sish davrlari jadal differensiallashuv davrlari bilan mos kelmasligi mumkin. Masalan, bosh miya va orqa miya massasining o'sishi 8—10 yoshga kelib voyaga yetgan inson miyasi og'irligiga tenglashgan holda deyarli yakunlanishi mumkin, uning asab tizimining faoliy takomillashuvi esa yana uzoq muddat sodir bo'ladi. Binobarin, notekis rivojlanish hodisasi — *geteroxronizm* turli-tuman faoliy tizimlarni tashkil etgan va ontogeneznining muay-yan bosqichida organizmning yashab ketishini ta'minlaydigan ay-rim a'zolar va to'qimalarning o'sish va rivojlanish holatini qiyosiy o'rganishda kuzatiladi. U, shuningdek, tizimlararo bog'lanishlar hosil bo'lishida ham asta-sekin namoyon bo'ladi. Geteroxronizm irsiyatning hayvonot olamida evolyutsion rivojlanish jarayonida moslashuvning rivojlanuvchi shakllarini mustahkamlab olishning natijasi hisoblanadi.

SUYAK TIZIMIDAGI BA'ZI PATOLOGIK O'ZGARISHLAR. UNING ME'YORIY GIGIYENASI


Bir qator sabablar oqibatida, bolalarning gavda tuzilishida bu-zilishlar paydo bo'lishi va noto'g'ri rivojlanishi mumkin. Bular, umurtqaning yonboshga qiyshayishi, qanotsimon yelka kuraklari, yelka belbog'ining assimetriyasi, ko'krak qafasining qisilishi kabilar bo'lishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar yurak, o'pka, ovqat hazm qilish a'zolarining ishini qiyinlashtiradi, moddalar almashinuvini yomonlashtiradi va ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi, o'spirinlar va kattalarda — mehnat unumdorligini kamaytiradi.

Odam umurtqa pog'onasi insonning tik yurishiga moslash-gan bo'lib, pastga qarab kengayib boradi. Umurtqa pog'onasining bo'yin, bel, ko'krak va dumg'aza qismlarida fiziologik bukilmalar bor. Bo'yin va bel qismidagi bukilmalar lordoz, ko'krak va dumg'aza qismlardagi bukilmalar kifoz deb ataladi. Bo'yin va bel qismlari oldinga, ko'krak va dumg'aza qismlari orqaga qarab bukil-gan bo'ladi. Bu bukilmalar bola boshini mustaqil ko'tarib turishi, o'tira boshlashi va tik turishi, yurishidan boshlab shakllanadi. Um-urtqa pog'onasining bo'yin va bel qismi ko'p, ko'krak qismi kam harakatlanadi. Umurtqa uzunligi erkaklarda o'rtacha 73 sm, ayol-

12-rasm. Rostomer yordamida bo'yning balandligini o'lchash



13-rasm. Meditsina torozisida vazn o'lchash



rostomerga tegib turishi kerak. O'tirgan holda odamning bo'yi rostomerining o'ng tomonidan o'lchanadi. 2. Ko'krak qafasi aylanasi. Ko'krak qafasining aylanasi uchta holada — maksimal nafas ol-ganda, maksimal nafas chiqarganda va pauzada o'lchanadi. Bunda tekshiruvchi qo'llarini yonga ochib turadi. Erkaklarda ko'krak aylanasi o'lchaganda santimetr tasma kurakning pastki uchiga va ko'krak bezining o'rtasiga qo'yiladi. Ayollarda santimetr tasma yor-damida ko'krakning yuqori qismidan aylanitirib o'lchanadi. 3. Bosh aylanasi santimetr tasma yordamida peshona ushi bilan aylanitirib o'lchanadi. 4. Vazn tibbiyot tarozisida kiyimlarni yengillashtirilgan holda o'lchanadi.

1. Qonning tarkibi bilan himnning tarkibi qanday; bu suyuqliklar nima uchun organizmning ichki muhiti deb ataladi?
2. Qonning ivishi qanday sodir bo'ladi va uning ahamiyati nimada; ketayotgan qonni qanday to'xtatish mumkin?
3. Qizil qon va oq qon tanachalari qanday tuzilgan va ular qayerda hosil bo'ladi?

Nazorat savollari

Yurak ko'krak bo'shlig'ida joylashgan. Yurak konus shaklida bo'lib, uning asosi birinchi va ikkinchi qovurg'alar oralig'ining, bo'lib, uchi esa to'rtinchi va beshinchi qovurg'alar oralig'ining to'rtinchi bo'limidan biriktiruvchi to'qima pardasi bi-turadi. Yurak tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima pardasi bi-turadi. Yurak bo'limlarining muskul devori yuqarog' bo'lib, chap qorincha devori o'ng qorinchanikiga qaraganda qalinroqdir. Yurak bo'limasi bilan yurak qorinchasi *tavqali klapan* bilan tutashib turadi. Klapan-lar yuqqa, ammo cho'zilishga yaxshi qarshilik ko'rsatadigan pishiq pardadir. Tavqalar chetidan qorinchalarning ichki yuzasiga borib bitkadigan paylari chiqadi. Yurakda tavqali klapanlardan tashqari, *varim oysimon* klapanlar ham bor. Ular chap qorincha bilan aorta va o'ng qorincha bilan o'pka arteriyasi chegaralarida joylashgan.

Limfatik kapillyarlar *limfatik tomirlarga* aylanadi, limfatik tomirlar tuzilishi jihatidan venalarga o'xshaydi, ammo devori yuqqa bo'ladi. Eng mayda limfatik tomirlar kapillyarlardan yo'g'onroq bo'ladi. Ular bir-biri bilan qo'shib to'bora yiriklashadi va diametri bir necha millimetr bo'lgan ikkita tarmoq hosil qiladi, bu tarmoqlar ko'krak bo'shlig'ining yuqorisi qismida katta qon aylanish doirasi venalarga kelib qo'shiladi. To'qima suyuqligi hujayralardan lim-fatik sistema orqali oqib chiqadi. Butun limfatik sistemaning boshi-dan oxirigacha ko'pdan-ko'p *limfatik tugunlar* joylashgan bo'ladi, qon tanachalari ana shu tugunlarda ko'payadi. Undan tashqari, bu tugunlar organizmga kirib qolgan bakteriyalarning tarqalishiga yo'l qo'ymaydi.

Yurak ko'krak bo'shlig'ida joylashgan. Yurak konus shaklida bo'lib, uning asosi birinchi va ikkinchi qovurg'alar oralig'ining, bo'lib, uchi esa to'rtinchi va beshinchi qovurg'alar oralig'ining to'rtinchi bo'limidan biriktiruvchi to'qima pardasi bi-turadi. Yurak tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima pardasi bi-turadi. Yurak bo'limlarining muskul devori yuqarog' bo'lib, chap qorincha devori o'ng qorinchanikiga qaraganda qalinroqdir. Yurak bo'limasi bilan yurak qorinchasi *tavqali klapan* bilan tutashib turadi. Klapan-lar yuqqa, ammo cho'zilishga yaxshi qarshilik ko'rsatadigan pishiq pardadir. Tavqalar chetidan qorinchalarning ichki yuzasiga borib bitkadigan paylari chiqadi. Yurakda tavqali klapanlardan tashqari, *varim oysimon* klapanlar ham bor. Ular chap qorincha bilan aorta va o'ng qorincha bilan o'pka arteriyasi chegaralarida joylashgan.

O'pkada gazlar almashinuvi. Odam nafas olganda kiradigan havoning 79% ga yaqini azot, 20% ga yaqini kislorod, 0,03 % qismi karbonat anhidrid va boshqa gazlardir. O'pkadan chiqadigan havoda 16% kislorod, 4 % karbonat anhidrid bo'ladi; unda azot va boshqa gazlarning miqdori o'zgaraydi, bundan tashqari, o'pkadan chiqadigan havo suv bug'iga to'yingan bo'ladi.

To'qimalarda gazlar almashinuvi. To'qimalarda doimiy sur'atda oksidlanish jarayonlari bo'lib turadi, bu jarayonlar vaqtida kislorod sarf bo'ladi. Buning natijasida, to'qimalarda erkin kislorod bo'lmaydi. To'qimalardan oqib o'tadigan qonda esa kislorod ko'p bo'ladi. Gemoglobin bilan birikkan kislorod undan ajralib chiqadi va diffuziya qonuniga binoan qondan kapillyarlar devori orqali to'qima suyuqligiga, undan esa hujayralarga o'tadi.

Gavdada oksidlanish jarayonlari hamma vaqt sodir bo'lib turganligidan to'qimalarda ham karbonat anhidrid ko'p bo'ladi. To'qimalarga oqib keladigan arteriya qonida karbonat anhidrid an-cha kam bo'ladi. Shuning uchun, karbonat anhidrid hujayralardan ular atrofidagi to'qima suyuqligiga, to'qima suyuqligidan qonga o'tadi. Katta yoshdagi kishilarda o'pkaning tiriklik sig'imi 2000 *kub.sm* dan 6000 *kub.sm* gacha, 15 yoshli o'smirlarda esa o'rta hisob bilan 2600 *kub.sm* bo'ladi. O'pka tiriklik sig'imining katta-kichikligi odamning jismoniy jihatdan qanchalik rivojlanganligini ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biridir.

Tinch holatda nafas olinishi va nafas chiqarilishi vaqtida bo'ladigan nafas olish harakatlarinnng soni odamning yoshiga bog'liq. Chaqaloq bola minutiga 30-45 marta, 14-15 yoshdagi o'smir 20 marta, katta yoshdagi odam 16-18 marta nafas olib, nafas chiqaradi.

Nazorat savollari

1. Nafas olish organlarida havoni ilitib beradigan qanday moslama-lar bor?
2. O'pkaning tuzilishi bilan uning funksiyalari orasidagi bog'lanish nimadan iborat?
3. O'pkaning tiriklik sig'imi nima va uning katta-kichikligi nimaga bog'liq?
4. Nafas olish va nafas chiqarishga nerv sistemasi hamda qon tarkibi qanday ta'sir etadi?

mushaklarini mustahkamlaydigan kompleks mashqlarni har kuni bajarib turish kerak.

O'spirinlar o'rtasida keng tarqalgan kasallik skolioz hisoblanadi. Umurtqaning oldingi va orqa yo'nalishlaridagi maromli (fiziologik) egriliklaridan tashqari yonboshga qiyshayishlar ham paydo bo'ladi va bu qomatning buzilishiga olib keladi. Bolalarda bukrilikning (skolioz) rivojlanishi bilan, albatta, umurtqaning burilib qolishi (torsiya) paydo bo'ladi. Kasallikning sababi qomatdagi nuqson-lar, ko'krak qafasining deformatsiyasi bo'lib, o'pka va yurak-tomir tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladi. Ushbu kasallik ko'proq qiz bolalarda kuchayishi kuzatilgan bo'lib, o'g'il bolalar o'rtasida ham tarqalgandir. 5 yoshdan 15 yoshgacha bolalarning taxminan 8 % kasallanadi.

